



INDONEZIYANING HALOL VA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TAJRIBALARIDAN O'ZBEKISTON SHAROITIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Yuldoshev Navro'z Ilxomboy o'g'li

Toshkent davlat sharqhunoslik universiteti

“Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” instituti
71010401 - turizm (xalqaro turizm) mutaxassisligi 2-bosqich
magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15401034>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-May 2025 yil

Ma'qullandi: 10-May 2025 yil

Nashr qilindi: 14-May 2025 yil

KEYWORDS

Turizm, halol turizm, smart turizm, ziyorat sayrlari, rekreatsiya, biznes, yalpi ichki mahsulot (YalM), innovatsion texnologiyalar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Indoneziya mamlakatining turizmni rivojlantirish tajribalari va ushbu tajribalardan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari yoritib berilgan. Bundan tashqari, Indoneziyada zamonaviy turizm shakllari sifatida rivojlanayotgan halol va smart turizm salohiyati statistik hisobotlar orqali ko'rsatib o'tilgan. Halol va Smart turizm destinatsiyalarining imkoniyatlari tahlillardan kelib chiqqan holda turizm rivojlanishining bir qator omillari sifatida qaraladi.

Jahonning globallasuvi barcha soha va tarmoqlarni o'zaro bir – biriga jipslashtirishi oqibatida yangi transformatsion shakldagi yo'nalishlar vujudga kelishiga xizmat qilmoqda. Xalqlar madaniyati o'zga urf – odatlarni o'zlashtirishi va singib borishi yangi ma'naviyat o'choqlarini barpo qilib, hozirgi sharoitda yuksak madaniyat beshiklariga aylanishi ayni haqiqat bo'lgani kabi, mamlakatlar taraqqiyotida turfa sohalarni tadqiq etish hamda ijobiy tomonlarini moslashtirish asnosida shakllantirish rivojlanish ustunlaridan biriga turtki beradi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston turizmini rivojlanish drayverlarini belgilab olgan holda sayyohlik industriyasi shiddatli rivojlanib borayotgan davlatlar xususan Indoneziya kabi davlatlar tajribalarini o'rganish va qo'llash imkoniyatlari dolzarb ahamiyat kasb etadi.


Indoneziya turizm rivojlanish tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari bir nechta omillarga tayanadi.

Birinchidan, Indoneziya Janubiy Sharqiy Osiyodagi turizmi tez sur'atlarda taraqqiy etayotgan davlat bo'lishi bilan bir qatorda turizmga yangi segment Musulmon sayyohligi borasida yetralicha o'rnak bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Ma'lumki Indoneziya yirik musulmon davlat hisoblanib, aholisining qariyb 88.25 foizidan ortiq qismi islom diniga e'tiqod qiluvchilarni tashkil etib, jami aholining 242.7 mln.ga, jahon musulmon olamining 12.27 foiziga teng jahonning eng yirik musulmon davlati hisoblanadi¹. Shuningdek, mamlakatda boshqa din vakillari istiqomat qiladi, bularning o'zaro diniy ziddiyatlari qisman bo'lib turishi tarixdan ma'lum bo'lsa – da, biroq, islom dinining konstituison beglinashi shu kabi tushunmovchiliklarga baham bermoqda. Taqqoslash o'rnida qayd etish kerakki, Saudiya Arabistoni 31.5 mln. mulumon, O'zbekistonda 29.9 mln. kishi islomga e'tiqod qiluvchilarni tashkil etadi. Bu jahon musulmon olamining 1.9 foizlariga teng deganidir, mos ravishda.

Aynan islom e'tiqodchilarining ziyorat sayrlari jahon turizmida musulmon turizmini shakllanishiga turtki berdi. Mastercard Crescent Rating Global Muslim Travel Index (GMTI) ning har yillik reytingiga ko'ra mamlakat qatorasiga ikki yildan buyon eng yaxshi musulmon turizm yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda. Bu Indoneziyaga 17 mln. xorijiy, 1.5 mlrd.marta ichki turistik ko'chishlarni amalga oshirish salohiyatini anglatadi². Shuningdek, mazkur reyting Islom hamkorlik tashkiloti orasida tuzilib a'zolar o'rtasida islom turistik destinatsiyalar ro'yxati shakllantirilib, ular musulmonlar o'rtasida tashrif buyurishga salohiyatli maskanlar sifatida ommalashtiradi. Shu asosda musulmon turistlar islom destinatsiyalariga sayohat qiladi. Bu esa, Halol turizm segmentini vujudga keltirishga turtki beradi.

Halol turizm o'ta kuchli salohiyatli industriya hisoblanadi. Tahlillarga ko'ra, 2024-yilda musulmon aholisi 2.12 mlrd. kishiga teng bo'lsa, 2034 yilga kelib esa, ularning soni 2.47 mlrd.ga yetishi baholangan. Musulmon va halol turizmi yosh segment sanalib, o'ziga xos xususiyati mazkur turizmida sayrlar oilaviy va do'stlar davrasini tashkil etib, asosan 21 – 40 yoshlar atrofida, asosiy maqsadi rekreatsiya va biznes turlardan iboratdir. Shuningdek, madaniy va tarixiy sayohatlar innovatsion texnologiyalar foydalanishini rag'batlantiradi. Shuningdek, musulmon sayohatlar 2024 yilda 230 mln.marta avia tashuvlar amalga oshirilib, qariyb 225 mlrd. AQSh dollari qiymatni tashkil etdi. Mazkur tashriflar aynan Halol turizm destinatsiyalar orasida yuz berishi uning qiymatini yanada oshirmoqda. Masalan 2011 yilda musulmon turizm destinatsiyalar soni 10 tani tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 100 foizga ortib 20 taga yetgan. 2016 – 2019 yillar oralig'ida 130 ta ortdi, 2024 yilga kelib esa, ularning soni 145 tani tashkil etdi.

1 – rasm. Jahon musulmon turistlar destinatsiyalari soni o'sish dinamikasi, birlik³.



Manba: Global Muslim Travel index 2024 tadqiqotlariga asosan muallif tomonidan ishlanma.

Indoneziya hukumati tomonidan musulmon turistlar tashriflarini yanada rag'batlantirish maqsadida mamlakat hududlarida halol destinatsiyalar sonini oshirish

rag'batlantirish natijasida 2024-yilga kelib ularning soni 76 ga yetganligini qayd etish kerak. Bu borada Indoneziyaning halol turizm borasidagi mazkur tajribalarini O'zbekiston turizmiga tadbiiq etish ijobiy natijalarga olib keladi deyish mumkin. So'nggi yillarda O'zbekiston davlati tomonidan turizmni yanada avj oldirish maqsadida turizm klasterlarini barpo etish ishlari amalga oshirilmoqda. Turizm klasterlarining asosiy xususiyati xorijiy turistik investitsiyalarni to'g'ridan – to'g'ri jalb etish bo'lishi bilan bir qatorda musulmon turistlarni rag'batlantirish bo'lishi katta daromadlarga olib kelishiga xizmat qiladi.

Tahlillar asosida O'zbekistonda halol va musulmon turistlar tashriflarini kengaytirish borasida quyidagi taklif va xulosalar ijobiy siljishlarga xizmat qiladi deyish mumkin:

Birinchidan, musulmon turistlar bozorini kengaytirishni rag'batlantirish zarur. Bunda, Halol turizm destinatsiyalarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Pirovardidad islomiy ahkamlarga asoslangan qurilishlarni ko'paytirish oziq – ovqat va ichimliklarga halol sertifikatlarni taqdim etishni rag'batlantirish;

Ikkinchidan, Halol turizm sayyohlik tashkilotlarni tashkil etish. Bunda shariy turistik paketlarni tashkil etish, mos ravishda joylashtirish vositalari ro'yxatlarini shakllantirish, harom sanalgan odob – ahloqli gid hamkorlarni yetishtirish;

Uchinchidan, Halol turizm gidlarni tayyorlash;

To'rtinchidan, Sha'riy mehmonxonalarni tashkil etish. Unda halol muvofiqlik sertifikatlar bilan ta'minlash, islomiy ibodatlariga hariz sharoitlarni barpo etish, harom hisoblangan sayr tamoshalardan yiroq tutish shular jumlasidandir.

O'zbekiston turizmini rivojlantirishda Indoneziyaning sayyohlik siyosatida ekologik barqarorlikka qat'iy amal qilishini o'rnak sifatida keltirish mumkin. Mamlakatga oyiga bir milliondan ortiq horijiy sayhlar tashrifi va 100 millionlab ichki turlar bo'lishiga, turizm infratuzilmalariga haddan tashqari ehtiyojlar ortishiga qaramay umumiy ekologik vaziyat barqaror hisoblanadi.

Shuningdek, Indoneziya mintaqada joylashgan davlatlararo o'zaro hududiy geografik kengliklarga erishishi qo'shni davlatlarning turistlari tashriflariga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu borada O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro turistik harakatlari mamlakatlar ichki turizm salohiyatga katta ta'sir ko'rsatadi. Qayd etish kerakki, mazkur mintaqa MOga nisbatan ancha katta tajribaga egaligi birinchi omil sifatida talqin qilinsa, ikkinchi tomondan globallashuvning kuchayishi istiqbolda MO mintaqasi davlatlarining ham o'zaro chegarasiz harakatlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan O'zbekistonning ham xalqaro turizm amaliyotini mazkur tendensiyalar ifodasiga qarata yo'naltirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Indoneziyaning smart turizm borasida islohotlari mamlakat sektorini Turizm 4.0 ga transformatsiyalashuvida katta ahamiyat kasb etadi. Jahon turizmning tez sur'atlarda raqamlashib borishi istiqbolda aqlli shahar va aqlli turizm sanoatini talab etishini inobatga olgan holda Indoneziyaning sohaga turli xil innovatsion texnologiyalarni keng joriy etilishi rag'batlantirish tajribasi muhim hisoblanadi.

Mamlakat yirik turizm salohiyatini virtual va kuchaytirilgan haqiqat texnologiyalari orqali ommaviy turistlarga yetkazib berishi ular minnatdorligi oshishiga sabab bo'lishini kuzatish mumkin. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar turistik xizmatlar bozori kengayishiga katta turtki beradi. Birgina, 2021 yilda mamlakat onlayn bronlash xizmatlari bozori qiymati 11.925 mlrd. AQSh dollari deb baholangan bo'lsa, 2030 yilga kelib uning hajmi

10.2 foizga ortib, 28.686 mlrd. AQSh dollariga yetishi prognoz qilingan. Onlayn bronlashda ustuvor soha transport sektori hisoblanib qolishi istiqbolda uning taraqqiyoti uchun infratuzilmalarni yaxshilash talab etiladi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, O'zbekiston onlayn turizm xizmatlarini rivojlantirish va kengaytirishda ustuvor soha sifatida transport xizmatlariga katta e'tibor qaratish lozimligi kelib chiqadi. Qayd etish kerakki, O'zbekiston turizmida transport sektori alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq, turizmida transportni bronlash yetarlicha sust deyish mumkin. Tadqiqot natijasi o'laroq Indoneziya tajribasini ijobiy tomonlarini mamlakatimiz transport taraqqiyotida qo'llash yetarlicha muvaffaqiyatga xizmat qiladi.

Xulosa

Tahlillar asosida keyingi taklif va xulosalar mamlakat ichki turistlar borasidagi islohotlari katta ahamiyat kasb etadi. Indoneziya turizmi YaIMni 2.3 foizini takshil etishi uning drayveri degan xulosadan yiroqmiz balki, turizm mamlakatning iqtisodiy va boshqa sohalarining drayveri va kaloriti deyish mumkin. 2024 yilda Indoneziya YaIM mahsuloti 1.379 trln. AQSh dollarini tashkil etgan. Pandemiya keyingi qayta tiklanish davrlarni mamlakat o'zga davlatlarga nisbatan tez sur'atlarda bosib o'tdi. Shu nuqtai nazardan turizmni iqtisodiyotining egri burchak toshiga qiyoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Astanakulov Olim Tashtemirovich., Soxibova Muslimaxon Xolmatjon qizi, "Ziyorat turizmini rivojlantirishda indoneziya tajribasini
2. qo'llash: salohiyat va istiqbollari", Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 1, February 2024. ISSN:2181-1016. B.9
3. D. V. Ferezagia et al. (eds.), Proceedings of the International Conference on Vocational Education Applied Science and Technology (ICVEAST 2023), Advances in Social Science, Education and Humanities Research P.783
4. Mastercard-Crescentrating | Global Muslim Travel index 2024. p-92.
5. <https://xabar.uz/uz/post/halol-turizmning-ozbekistondagi-istiqbollari-qanday>
6. <https://muslim.uz/uz/e/post/35130-halol-turizm-sohasida-o-zbekistonning-reytingini-yaxshilash-uchun-nima-zarur>
7. <https://tourquality.uz/uz/press-center/news/smart-turizm-umnyy-turizm/>
8. https://www.researchgate.net/publication/378581977_Smart-turizm_xorijiy_tajriba_va_uni_Ozbekistonda_qollash_istiqbollari